

VALID IBN ABDULMALIK DAVRIDAGI POYKAND VA BUXORO FATHLARI HAQIDAGI AYRIM MA'LUMOTLAR

Jurayev Sherzod Norovich

Oriental universiteti o'qituvchisi

Islomova Mushtariy Azizjon qizi

Oriental universiteti iqtidorli talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola arab xalifalaridan biri Valid ibn Abdulmalik davri tarixi, hamda Poykand va Buxoro fath etilishi bilan bog'liq tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Valid ibn Abdulmalik, Andalus, Konstantinopol, Termiz, Kesh, Qutayba ibn Muslim Bohiliy, Poykand, Buxorxudot, Buxoro.

Biz ushbu kichik izlanishni Valid ibn Abdulmalikdan boshlashimizning asosiy sababi aynan shu xalifa davrida bizning yurtimiz fath etildi. O'rta osiyo xalqlarining islom diniga kirishiga xalifaning xizmatlari beqiyosdir. U haqida Valid ibn Abdulmalik ibn Marvon rohat-farog'atda o'sdi. Til ilmida zaif edi. Xalifalikni otasidan keyin, otasining ahdiqa binoan egalladi deb yoziladi¹. S.Ummataliyev "Islom tarixidan oltin sahifalar" asarida keltirilishicha Xalifa Valid 670-yili Madinada tug'ildi. Otasi uni dastlab amakisining qizi Ummul-baniyn binti Abdulazizga uylantirdi, undan Abdulaziz va Muhammad ismli ikki o'g'il ko'rdi. So'ng Valid Sosoniylar hukmdori Kisroning avlodidan bo'lgan Sohfarid ismli qizga uylandi. Undan ham bir o'g'il farzand ko'rdi va unga Yazid deb ism qo'ydi. Yazid ibn Valid umaviylar sulolasini yakunida qisqa muddat (743-744) xalifalik qilgan. 705-yil oktabr oyi o'rtalarida Abdulmalik vafotidan so'ng Valid shaharlar aholisidan yangidan bay'at oldi. Valid xalifaligining avvalida umaviylar masjidini qurishga kirishdi. U bu masjidni o'n yil davomida ya'ni xalifaligining oxirigacha qurishni davom ettirdi. Bu masjid o'rnida avval Xristianlarning ibodatxonasi bor edi. Valid xristianlar bilan muzokara olib borib, ibodatxonani buzishga kirishdi. Valid masjidni qurish uchun juda ko'p mablag' sarfladi. Validning binokorlik ishlaridan yana biri Rasululloh sollalohu alayhi va sallam masjidlarini kengaytirishi edi. Shuning uchun uni umaviylar arxitektori deyiladi. Valid ibn Abdulmalik Oisha va Fotima roziyallohu anhumolarning xonalarini va masjid atrofidan sotib olingan 200 ziro miqdordagi yer maydonini masjid tarkibiga

¹ Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf "Islom tarixi 2-juz" "HIOLNASHR" nashriyoti Toshkent 2022, 46-bet

kiritdi. Bu ishni Madina voliysi Umar ibn Abdulaziz xalifa buyrug‘i bilan amalga oshirdi. Shuningdek, u Qubbat as-Sahroda ulkan qurilish ishlarini olib bordi Damashqdan 20 kilometr shimoli-sharqdagi yerda moxov kasaliga chalinganlar uchun kasalxona tashkil etdi. U qorilarni hurmat qilar va ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlar edi.¹ Fazilatli Shayximiz Muhammadsodiq Muhammadyusuf janoblari “Islom tarixi 2-juz” asarlarida Valid ibn Abdulmalikning xalifalik davrida Islom olamidagi barcha viloyatlarda sokinlik, kengchilik, farovonlik, tinchlik-omonlik va barqarorlik hukm surdi. Havorijlarning ishlari zaiflikka yuz tutdi. Bu davrda jiddiy salbiy harakatlar bo‘lmadi ²deya ta’riflaganlar. Bizga muhum jihat shuki islom dinining keng tarqalishi zamirida islom bizning o‘lkalarda qaror topdi. Eng mashshur fathlar Afrika qita’sining shimolidan Andalusga qadar yuz berdi. Taxminan 711 yilda Andalus egallandi, bu haqda Fitrat: “ Shunday qilib, ushbu mamlakat ham Valid binni Abdul-malik zamonida musulmonlar ko‘liga o‘tdi. Shu tariqa Misrdan Forsga qadar bo‘lgan hamma mamlakat Islom ahli qo‘lida bo‘ldi. Andalus hukmdorlari bilan jang qilib, ularning shaharlarini oldilar. Ushbu tog‘ni hozirga qadar "Jabal-Toriq", ya’ni Toriq tog‘i, deb ataganlar va Sabata bo‘g‘ozini ham "Bo‘g‘ozzi Jabal-Toriq", ya’ni Toriq tog‘ining bo‘g‘ozzi, deyilgan. Muso binni Nasir bu xabarni eshitib, o‘z lashkari bilan Andalusga keldi. Ikkala sardor qo‘shildilar, birgalikda Andalus ahliga qarshi jang qilib, ul mamlakatni-da oldilar”.³ Demak, Valid ibn Abdulmalik xalifaligi davrida Andalusiya⁴ va hatto Frantsiyada keng fath yurishlari amalga oshirildi.

Vizantiyaga qarshi Maslama ibn Abdulmalik boshchiligidagi harbiy harakatlar olib borildi. Bu yurushlarda xalifaning o‘g‘illari ishtirok etdilar. Musulmon armiyasi Vizantiya hududiga yanada chuqurroq kirib borib, 708-yili Ammoriya va Hiraqliyagacha yetib keldi. Konstantinopolga ham yurishlar uyushtirildi. Vaqtiga qarshiligi bilan vizantiyaliklar ham qarshi hujum qilsa-da, ular boy bergen hududlarini qaytarib ola olmadilar.

Valid ibn Abdulmalik davrida qilingan eng katta fathlardan biri Movarounnahr fathidir. Movarounnahrga arablar Valid ibn Abdulmalik davridan oldin ham bir necha yurishlar uyushtirgan, biroq ular bu o‘lkani to‘la bo‘ysundira olmaganlar. Faqat Termiz shahri VII asrning 90 yillarida Muso ibn Abdulloh tomonidan egallanib, 705 yilgacha umaviylardan mustaqil shahar-davlat sifatida idora qilindi. . 705 yili Xuroson amiri Mufaddal ibn Muhallab uni yengishga muvaffaq bo‘ldi va shundan so‘ng Termiz shahri xalifalik tarkibiga kiritildi. Termiz shahri egallanganidan so‘ng Hajjoj ibn Yusuf Muhallab avlodlarini Xuroson amirligidan chetlashtirib, o‘rniga Qutayba ibn Muslim

¹ S.Ummataliyev “Islom tarixidan oltin sahifalar” “O’QITUVCHI” matbaa uyi Toshkent 2021, 162-163 betlar

² Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf “Islom tarixi 2-juz” “HIOLNASHR” nashriyoti Toshkent 2022, 48-bet

³ Abdurauf Fitrat “Muxtasar Islom tarixi” Toshkent “Yangi asr avlod” 2004, 16-bet

⁴ Bugungi kunda Ispaniya va Portugaliya hududi bo‘lib, musulmonlar u yerda hukmonlik qilgan davrlarda Andalusiya deb atalgan.

al-Bohiliyni Xuroson voliysi etib tayinladi. Qutayba Marvga kelib, Muhallabning hamma o‘g‘illarini hibsga oldi va Hajjoj huzuriga yubordi. Qutayba Movarounnahr shaharlaridan Oxarunga yurish qilmoqchi bo‘ldi. U Surxondaryo viloyatining shimoli-sharqi va Tojikiston Respublikasi g‘arbida joylashgan qadimiy shahar sanaladi. Oxarun unga qo‘sni Shumon (bugungi kundagi Dushanbe shahri o‘rnida joylashgan shahar davlat)hukmdori tomonidan idora qilinar edi. Shuning uchun Qutayba Shumonga yurish qilmoqchi bo‘lib turganida, uning oldiga Shumon podshohi G‘ushtasbon kelib, sulk taklif qildi. Sulhga ko‘ra Shumon podshohi Qutaybaga o‘lpon to‘lashi kerak edi. O‘lpon to‘langanidan so‘ng Qutayba Marvga qaytib ketdi¹. Qutayba juda katta mintaqalarini Islom hukmiga bo‘ysundirdi. Mazkur mintaqalarning maydoni 4 million km²dan oshib ketdi. Bu mintaqalar Kavkaz mintaqalaridan boshlanib, Kaspiy dengizining janubi tomon yeyilgan edi. Shimolda O‘rta Osiyo, sharqda esa Sharqiy Turkiston yerlarini fath qildi. Keyin g‘arbgan qarab Kobul, Afg‘oniston, Sijistonni bo‘ysundirdi².

Movarounnahrda Qutayba ibn Muslim Bohiliy milodiy 706 yilda Poykent shahrini fath qildi. Poykand Buxoro viloyatining Jondor va Qorako‘l tumanlari tutashgan xududda joylashgan qadimiy shahardir. U bilan birga Bodg‘is hukmdori Nizak Tarxon ham bor edi. Poykandliklar unga qarshi chiqdilar va Sug‘d va Buxoroga yordam so‘rab, elchi jo‘natdilar. Shahar aholisi buxoroliklar va sug‘dlar yordamida arablarga qarshilik ko‘rsatdi. Qutayba Poykand qal’asini 50 kun davomida qamal qildi, keyin uning devori tagidan lahm qazib, ichiga yo‘l ochdi. Shundan so‘ng arablar va shahar aholisi o‘rtasida shiddatli jang bo‘lib o‘tdi, unda arab qo‘sishlarining kuchi ustun keldi. Shahar aholisidan omon qolganlari qal’a ichiga kirib jon saqladilar. Qutayba qal’a devorini o‘qqa tutmoqchi bo‘lganda, poykandliklar sulh tuzishni so‘radilar. Qutayba ular bilan sulh tuzib, shaharga Varqo ibn Nasrni amir etib tayinladi. O‘zi esa Buxoroga yo‘l oldi. U Buxorodan 4 farsax uzoqlikda joylashgan Xunbun qishlog‘iga yetganda, Poykand ahli qo‘zg‘olon ko‘targani haqida xabar keldi. Qutayba Poykandga qaytib kelib, shahardagi urushga yaroqli hamma odamlarni qilichdan o‘tkazdi, qolganlarni esa asirga oldi. Qutayba Poykandda katta o‘lja qo‘lga kiritdi va uning 1/5 qismi (xums)ni Hajjojga yubordi, qolganini askarlarga bo‘lib berdi. U shahar xazinasida ko‘p qurollarni qo‘lga kiritdi. Xazinaning bir xonasida u hisobsiz oltin va kumush idishlar topdi. Arablar u yerda yana oltindan yasalgan katta sanam topdilar. Qutayba uni eritishni buyurdi va undan 250 ming dinor oltin chiqdi. Poykand aholisi savdogarlar bo‘lib, o‘sha vaqtida ularning ko‘plari mol olib kelgani Xitoya ketgan

¹ 9 Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 249.

² Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf “Islom tarixi 2-juz” “HIOLNASHR” nashriyoti Toshkent 2022, 54-bet

edilar. Ular safardan qaytib kelgandan keyin o‘zlarining oila a’zolarini arablardan sotib oldilar. Keyin ular Qutaybadan ruxsat olib, shaharni qayta qurdilar.¹

Bu ma’lumotlarga e’tibor qaratsak, ma’lum bo‘ladiki bu shahar fathida qattiq va keskin chora ko‘rilgan. Shahar aholisining qirib tashlanishi va qolganlarining qul qilinishi arab muarrixlari manbalarida keltirilgan. Aynan sovet davrida Arab istilosini atamasining keng qo‘llanilishi va shu atamaning oqlanishiga xizmat qiluvchi bu voqeя yuz berdi. Shahar qayta tiklanadi ammo savdogarlar shahrining oldingi shon-shuhrati tiklanmadи.

Qutaybaning keyingi fath yurishi Buxoroga qaratildi. Muhammad ibn Ja’farning aytishicha, Tag‘shodaning onasi bo‘lmish xotinning eri Buxorxudot o‘lganida, uning o‘g‘li podshodzoda (Tag‘shoda) kichik yoshli bo‘lib, shu xotin podshohlik qilib turdi. Malika xotin Buxoroga arablardan har kim kelsa u bilan ozgina urush qilar, so‘ngra sulh tuzar edi. Uning o‘g‘li kichik bo‘lganidan qarindoshlarining har biri bu mamlakatni egallash tamaida edi. (Ilgari) Buxorxudot Buxoroni jang qilib olgan edi. Buxoro aholisi har safar (islom lashkari kelganida) musulmon bo‘lar, arablar qaytib ketganida esa ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marta musulmon qilgan, ular esa yana dindan qaytib kofir bo‘lgan edilar. Bu to‘rtinchи marta (kelganida) Qutayba jang qilib Buxoro shahrini oldi, ko‘p qiyinchiliklardan keyin (bu yerda) islom dinini yuzaga chiqardi va har turli yo‘llar bilan ularga qiyinchiliklar tug‘dirib, dillariga musulmonchilikni o‘rnashtirdi. Ular esa islom dinini yuzaki qabul etib, haqiqatda butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab ularnint xatti-harakatlaridan xabardor bo‘lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo‘ladilar, degan maqsadda Buxoro aholisiga o‘z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni to‘g‘ri topdi va shu yo‘l bilan u musulmonchilikni o‘rnatdi hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni majbur etdi. Qutayba masjidlar bino qildi, kofirlik va otashparastlik asarlarini yo‘qotdi. U ko‘p jiddu-jahd qilib, har kimdanki shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo‘lsa uni jazolar edi. U masjidi jome bino qildi va odamlarga juma namozini o‘qishga buyruq berdi, toki xudoyi taolo bu yaxshi ish savobini Buxoro aholisi uchun oxirat zaxirasi qilsin!² Tarixiy kitoblarda Qutayba Ibn Muslimning Buxoroni olishi bosqinchilik deb qattiq qoralandi va bu yurishning ijobiy jihatlari umuman ko‘rsatilmadi. Odamlarni islomga chaqirish uchun jiddi jahd qilinganligi va bu yo‘lda amalga osgirilgan ishlar tilga olinmadи. Masalan:

Buxoro shahrining o‘ziga 4 marta islom taklif etilganligi aholini nomiga islomga o‘tib yoki jizya to‘lab keyinchalik dindan qaytganligi;

¹ Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 257.

² Muhammad ibn Ja`far Narshaxiy “Buxoro tarixi” “ANOR BOOKS”nashriyoti Toshkent 2022, 82-bet

shahar markazida masjidi jome bino qilib va odamlarga juma namozini o‘qishga buyruq berdilar va xalqni islom bilan tanishtirdilar, mashhur Qubbatul islom nomini Buxoro olishiga tamal toshi qo‘yildi;

Qutayba arablar buxoroliklar bilan birga yashab ularning xatti-harakatlaridan xabardor bo‘lib tursalar degan maqsadda Buxoro aholisiga o‘z uylarining yarmini arablarga berishga undab buyruq chiqarishni to‘g‘ri topdi va shu yo‘l bilan u musulmonchilikni mahalliy aholiga o‘rgatishni ko‘zlaganini bilishimiz mumkin;

Tarixchi Ahmad ibn Yahyo Balazuriy ma’lumot berishicha, Qutayba Samarqandda bir guruh musulmonlar jamoasini qoldirdi. Ular orasida “at-Tafsir” asarining muallifi Daxxok ibn Muzohim ham bor edi. Bu olimlar amirlari kim bo‘lishidan qat’iy nazar ilm tarqatish va islomni o‘rgatish bilan shug‘llandilar. Arab qo‘mondonlarining qattiqqo‘lligini ayamay tanqid qilgan olimlardan Daxxok ibn Muzohim tafsir ilmini yaxshi bilgan. XII asrda ham Samarqandda u qurdirgan binolar va masjid bo‘lgan. U Balxdagi madrasada bolalarga tafsir ilmidan ta’lim bergen. Uning madrasasida 3 mingta g‘ulom va 700 ta qiz tahsil olgan. Dars vaqtida u eshakga minib, o‘quvchilarni aylanib yurgan. U “at-Tafsir” kitobining muallifi bo‘lgan va hadis rivoyat qilgan. U Balx yaqinidagi Baruqon shahrida 724-yil vafot etgan va o‘sha yerga dafn etilgan.

Aynan O‘rta Osiyoning arab fathiga qadar 15 dan ortiq deyarli mustaqil davlatlarga bo‘linganligi va Xristianlik, Zardushtiylik, Moniylik, Ko‘k Tangrichilik, Buddizm kabi dinlarning turli hududda hukmronligi hamda o‘zaro nizolari avjida bo‘lib, islom xalifaligi bu dinlar da davlatlarni yaxlit makon va yagona g‘oya ostida birlashtira oldi.

Salbiy bo‘yoqlar bilan yozayotgan olimlarimiz yuqorida sanalgan kabi ijobiy jihatlarga e’tibor bersalar, nur ustiga nur bo‘lar edi. Zero, Islom nuri butun millatlarni zalolatdan olib chiquvchi nur bo‘lib, hozirgi kunda islom haqiqati boshqa diniy g‘oyalardan ustunligini yaqqol ko‘rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Shayx Muhammadsodiq Muhammadyusuf “Islom tarixi 2-juz” HIOL NASHR” nashriyoti Toshkent 2022, 46-bet
2. S.Ummataliyev “Islom tarixidan oltin sahifalar” “O‘QITUVCHI” matbaa uyi Toshkent 2021, 162-163 betlar
3. Abdurauf Fitrat “Muxtasar Islom tarixi” Toshkent “Yangi asr avlodi” 2004, 16-bet
4. Al-Balazuriy. Futuh al-buldon, Xurosonning fath etilishi // So‘zboshi, arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. – Toshkent: OOO “Extremum-press”, 2017. – B. 257.
5. Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy “Buxoro tarixi” “ANORBOOKS”nashriyoti Toshkent 2022, 82-bet